“O’zbekiston temir yollari” AJ

Toshkent temir yollar muhandislari instituti

“TASDIQLAYMAN”
“Tillar” kafedrasi mudiri
_____ G.S.Mustayeva
1 - sonli bayonnoma
2019 yil “26” 08

O’ZBEK TILI FANIDAN
YAKUNIY
NAZORAT SAVOLLARI

Toshkent-2019

Yakuniy nazorat savollari (1 – semester)

1. 1991-yil 1-sentabrda O’zbekiston tarixida qanday voqea sodir bo’ldi?
2. O’zbekiston Respublikasining Davlat Mustaqilligi to’g’risidagi Qonuni qachon qabul qilingan?
3. O’zbekiston ramzlari – bayrog’i, gerbi haqida gapirib bering?
4. O’zbekiston Respublikasi madhiyasining muallifi va bastakori kim? Madhiyani yoddan ayting.
5. O’zbek tili fanining bo’limlarini sanang. Orfoepiya bo’limi nimani o’rgatadi?
6. Dunyoda xalqlar nechta tildan foydalanadi? Tilning vazifasi nimalardan iborat?
7. O’zbek tiliga qachon Davlat tili maqomi berildi?
8. Davlat tili haqidagi qonundan moddalar ayting, uni tushuntirib bering.
9. Tilimiz haqida qanday maqollar va hikmatli so’zlarni bilasiz?
10. O’zbek tilining imlo qoidalari qanday tarkibiy qismlardan iborat? Bo’g’in ko’chirish qoidalari haqida nazariy ma’lumot bering.
11. Milliy qadriyatlarimizga misollar keltiring.
12. Navro’z bayramidagi taassurotlaringiz haqida gapiring.
13. Boshqa millatlarning qanday urf - odatlarini bilasiz?
14. Uloq, poyga, kurash, arqon tortish, qovun sayli, muchal to’yi marosimlari haqida so’zlab bering.
15. O’zbek tilida so’zlar qanday usullar bilan yasaladi? Affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasalgan so’zlarga misollar keltiring.
16. Ta’lim sohasidagi islohotlar haqida gapiring.
17. Ibs Sino, Ulug’bek, Navoiy, Bobur haqidagi tarixiy filmlar haqida nimalarni bilasiz?
18. Sizga qaysi tarixiy asar yoqqan?
19. Tarixiy asardagi qahramonlardan birini tasvirlang.
20. O’zbek tilining leksik qatlamlariga nimalar kiradi? Atama, iboralar, arxaik so’zlar, argo, jargon haqida tushuncha bering.
21. Axmad al Farg’oniy va uning merosi haqida gapiring.
22. Abu Nosir Farobiy va uning asarlari haqida so’zlab bering.
23. Al Xorazmiyning fanga qo’shgan yangiliklari nimalardan iborat?
24. Ibn Sinoning “Tib qonunlari” dan tashqari qanday asarlarini bilasiz?
25. Ilmiy va kasbiy atamalarining farqini tushuntiring, misollar keltiring.
26. “Har kimning tug’ilgan joyi Misrdan yaxshi” hikmatli so’zini tushuntiring?
27. Vatanparvarlik nima?

28. To’maris haqidagi afsonani so’zlab bering.
29. Jaloliddin Manguberdining qahramonliklari haqida nimalarni bilasiz?
30. Quyidagi ijtimoiy siyosiy leksikaning ma’nolarini ayting. Suveren, demokratik, davlat, konstitutsiya, Prezident, parlament, burch.
31. O’zbekistonda qanday muzeylar bor?
32. Jahonning eng nufuzli muzeylaridan biri haqida bilganlaringizni gapirib bering.
33. Nukusdagi Stavitskiy san’at muzeyi haqida nimalarni bilasiz?
34. Toshkent temir yo’l muzeyi haqida taassurotlaringizni bayon eting.
35. Temir yo’l sohasiga doir terminlarga misol keltiring.
36. Kelajakda O’zbekistonning qaysi sohasi rivojiga hissangizni qo’shasiz?
37. “Kelajak ovozi” yoshlar tashabbuslari markazi haqida nimalarni bilasiz?
38. Islom Karimov fondi haqida gapirib bering.
39. “Mening tengdoshlarim” mavzusida so’zlang?
40. “Sinonimlar nutqning ko’rki” mavzusida gapiring.
41. Bobolarimizning dunyo tamadduniga qo’shgan ilmiy merosi haqida gapirib bering.
42. Dunyoning nufuzli ta’lim dargohlari va ularning o’qitish tizimlari haqida so’zlang.
43. Ta’lim tizimimizga yana qanday yangiliklarni olib kirish mumkin?
44. Chet ellik talabalari hayoti haqida badiiy asar o’qiganmisiz?
45. Til va terminologiya haqida nazariy ma’lumot bering.
46. Tengdoshlaringizning qaysi qiziqishlarini qadrlaysiz?
47. Iqtidorli yoshlarni qo’llab - quvvatlaydigan tashkilotlar haqida gapiring.
48. Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti haqida bilganlaringizni so’zlang.
49. “Nihol” mukofoti qanday soha odamlariga beriladi?
50. Sinonomik qator yarating? Vatan –
51. “Vatani borning, baxti bor” maqolini izohlang.
52. “Shiroq” afsonani gapirib bering.
53. Mustaqillik va ozodlik uchun kurashgan o’zbek xalq qahramonlaridan kimlarni bilasiz?
54. Vatan haqidagi yod olgan she’ringizni ayting.
55. Ijtimoiy - siyosiy leksika nima? Misollar keltiring.
56. Al – Xorazmiy qaysi fanlarning rivojiga hissa qo’shgan?
57. Ilk jug’rofiy kartalarni kim tuzgan?
58. Ibn Sino nechta asar yozgan?
59. Ibn Sinoning qaysi asari Ovropa mamlakatlarida asosiy qo’llanma sifatida xizmat qilgan?
60. Ilmiy va kasbiy atamalarga misollar keltiring.
61. Insonning nutqi qanday bo’lishi kerak?

62. Tirik tillar deganda nimani tushunasiz?
63. Alisher Navoiy o’zbek adabiy tilining rivojiga qanday hissa qo’shgan?
64. Davlat tili haqidagi qonundan moddalar ayting, izohlang.
65. Orfografiya qoidalaridan qo’shib va ajratib yozish bandlari haqida nazariy ma’lumot bering?
66. O’zbek milliy qadriyatlarini sanang?
67. “Mehrjon” bayrami haqida nimalarni bilasiz?
68. Ramazon hayitini qanday nishonlaymiz?
69. Uloq, poyga, arqon tortish kabi musobaqalardagi taassurotlaringizni gapiring.
70. So’z yasalishning morfologik, sintaktik, leksik usullari haqida nazariy ma’lumot bering?
71. Registon, Shohi Zinda, Bibixonim yodgorliklari haqida so’zlab bering?
72. Tarixiy joy nomlariga misollar keltiring? Shayxontohur...
73. “Ilyosxo’ja” filmi haqida fikr yuriting.
74. Filmdagi tarixiy shaxslardan birini tasvirlang.
75. Arxaizm va tarixiy so’zlarning farqi haqida gapiring? Misollar keltiring.
76. Qadimda kitob nusxalarini nimalardan tayyorlashgan?
77. Nechanchi asrdan boshlab Yevropada qog’oz asosiy yozuv materiali bo’lib xizmat qilgan?
78. Yunonistonda birinchi yirik kutubxonani qaysi olim tashkil qilgan?
79. Movarounnahrda nafis kitob va xattotlik san’ati qaysi davrda rivoj topgan?
80. Erkin va turg’un birikma nima? Misol keltiring? Farqini tushuntiring?
81. Alisher Navoiy nomidagi O’zbek Milliy kutubxonasida nodir kitoblar va qo’l yozmalar soni nechta?
82. Milliy kutubxonamizda xorijiy tillaridagi adabiyotlar fondi necha/ ming nusxadan iborat?
83. Kutubxona xodimlari jahonning nechta mamlakati bilan kitob almashinuvini yo’lga qo’ygan?
84. Milliy kutubxonadagi kitoblar nechta tilda yozilgan?
85. Sinonim va antonim iboralarga misollar keltiring?
86. Badiiy so’z nima?
87. Badiiy adabiyot san’atning boshqa turlaridan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
88. Birinchi o’qigan asaringiz qaysi asar? Mazmunini hikoya qiling.
89. Detektiv yo’nalishdagi qaysi asarlarni o’qigansiz?
90. Nutq uslublari nechta? Badiiy uslub haqida ma’lumot bering?
91. Ommaviy axborot vositalariga nimalar kiradi?
92. Milliy va jahon teleko’rsatuvlaridan qaysi biri sizga yoqadi? Sababini izohlang?
93. Milliy gazeta va jurnallarimizdan qaysi biri sizga ko’proq yoqadi?

94. Reklama matnini tayyorlaganda mahsulotingizning qaysi jihatlariga ko'proq e'tibor berasiz?
95. Publitsitik uslubning xususyatlari haqida gapirib bering?
96. Axborot xizmatlari qaysi aloqa vositalari bilan amalga oshiriladi?
97. Elektron pochta xizmatiga nimalar kiradi?
98. Internet nima?
99. Internetning ijobiy va salbiy jihatlariga to'xtaling?
100. Og'zaki va adabiy so'zlashuv uslubining farqlari haqida gapiring?
101. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?
102. Xorijiy davlatlar O'zbekiston bilan qaysi sohalarda hamkorlik qilmoqda?
103. O'zbekistonda turizm sanoati haqida gapiring.
104. Jahonda bizning qaysi mahsulotlarimizga talab katta?
105. Rasmiy diplomatik uslubning xususyatlari haqida ma'lumot bering.
106. Innovatsiya nima?
107. Tengdoshlaringizning qanday kashfiyotlarini bilasiz?
108. Temir yo'l sohasida qanday innovatsiyalar yaratilyapti?
109. O'zbekistonda yaratilgan qaysi innovatsiyalar sizni hayratga soldi?
110. Ilmiy uslub haqida nazariy ma'lumot bering?
111. Insoniyat oldida turgan global muammolar haqida gapiring?
112. Ekologik muammolar – qaysilar?
113. Bugungi kunda Orol muammosiga qanday yechim topilgan?
114. Chingiz Aytmatov asarlaridagi manqurtlik global muammomi? Manqurtlik nima?
115. Maqolaning qanday turlari mavjud?
116. Orol fojiasining oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?
117. Ekologik madaniyat deganda nimani tushunasiz?
118. Respublikamizda faoliyat yuritayotgan qo'riqxonalar haqida ma'lumot bering.
119. O'zbekistonning nabotot olami haqida gapirib bering.
120. Intervyu olish hamda intervyu berish qoidalari haqida ma'lumot bering.
121. Zamonaviy o'zbek yozuvchilaridan kimlarni bilasiz?
122. "O'tgan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarining muallifi kim?
123. "Xamsa" tarkibidagi dostonlar qaysilar?
124. G'.G'ulomning "Shum bola" asari qissami, romanmi?
125. Nima uchun iboralar turg'un birikma deyiladi?
126. Novella va povestning farqli tomonlari nimada?
127. Abdulla Qahhorning qaysi hikoyasini o'qigansiz?
128. Jahon adiblaridan kimlarni bilasiz?
129. O'qigan hikoya va povest qahramonlaridan birini tavsif qiling?

130. Publitsistik va badiiy uslubning farqlari nimada?
131. O’zbekiston Respublikasining “Ommaviy axborot vositalari to’g’risida”gi qonuni qachon qabul qilingan?
132. Nima uchun ommaviy axborot vositalarini to’rtinchi hokimiyat deb ataymiz?
133. “Temiryo’lchi” gazetasi faolyati sizni qoniqtiradimi? Gazeta sahifalarida yana nimalarga e’tibor berilishini xohlaysiz?
134. Sizga qaysi milliy jurnalimiz yoqadi?
135. Gazetalarda ishlatiladigan ijtimoiy siyosiy leksikaga namunalar keltiring.
136. L.N.Tolstoyning “Urush va tinchlik” asarining g’oyasi – insoniyatning global muammosi.
137. Suv – global muammolardan biri mavzusida so’zlang.
138. Davlatimizning “Mehr – 2” deb nomlangan tadbiriga munosabat bildiring?
139. Gazetaga maqola tayyorlasangiz qaysi muammolarga diqqatni qaratardingiz?
140. Publititstik maqolaning talablari nimalardan iborat?
141. Internet madaniyat nima?
142. Internet saytlaridan qaysilarini tavsiya qilasiz? Nima uchun?
143. Internetning salbiy tomonlari haqida so’zlang.
144. Telefonda gaplashish madaniyati deganda nimani tushunasiz?
145. “Internet hayotimizda” mavzusida sodda gaplar tuzing, ularni qo’shma gaplarga aylantiring.
146. Vatanimizning tabiiy boyliklari haqida so’zlab bering.
147. O’zbekistonning hayvonot olamidan qaysi birlari qizil kitobga kiritilgan?
148. “Toza havo – dardga davo” maqolini sharhlang?
149. O’zbekiston qo’riqxonalari haqida gapiring.
150. “Orol fojia”si mavzusida 5 ta bog’ovchisiz, 5 ta ergashgan qo’shma gap tuzing?

Tuzuvchi: O.R.Iskandarova

(Asos) “Tillar” kafedrasining 2019 – yil 26 – avgustdagi №1 sonli bayonnomasida tasdiqlangan.